



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI  
PEDAGOGIK MAHORAT  
MILLIY INSTITUTI

ZAMONAVIY TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI  
VA RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA

MATERIALLAR  
TO'PLAMI

2025-YIL  
12-DEKABR

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA’LIMI VAZIRLIGI  
A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY  
INSTITUTI**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY  
INSTITUTIDA BO‘LIB O‘TGAN “ZAMONAVIY TA’LIMNING  
DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA  
RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI” MAVZUSIDAGI  
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**MATERIALLAR TO‘PLAMI**

**2025 – YIL 12 – DEKABR**

**Toshkent – 2025**

---

**ISSN: 00000**

**“Zamonaviy ta’limning dolzarb muammolari, yechimlari va rivojlantirish tendensiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami (2025 – yil 12 – dekabr) – T.:**

**NASHR ETISHDA QATNASHGANLAR:**

**A.A.ISMAILOV, S.KAZAKOVA, D.M.XAKIMOVA,  
F.A.NASRULLAYEVA, D.VOHIDOV, Z.MAHMUDOV, F.FARHODOV**

<b>Tashkiliy qo‘mita va tahrir hay’ati a’zolari</b>	
<i>A.A.Ismailov</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori
<i>S.Kazakova</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti akademik faoliyat bo‘yicha prorektor
<i>D.M.Xakimova</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrası mudiri
<i>S.Jumanazarov</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası mudiri
<i>M.T.Ergasheva</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri
<i>F.A.Nasrullayeva</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrası v.b.dotsenti
<i>D.Vohidov</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrası v.b.dotsenti
<i>Z.Mahmudov</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrası v.b.dotsenti
<i>F.Farhodov</i>	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar” bosh mutaxassisi

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ilmiy metodik kengashining navbatdan tashqari 26.12.2025 dagi 14-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni va ko‘rsatilgan raqamlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar javobgardirlar.*

## 1-SHO‘BA. ZAMONAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI VA ISTIQBOLLARI



## INKLYUZIV TA’LIMDA O‘QUVCHI FAOLIGINI RIVOJLANTIRISH: MOSLASHTIRILGAN ISH SHAKLLARI VA DIDAKTIK YONDASHUVLAR

**Nazarova Dildora Asatovna**

*Oriental universiteti «Uzluksiz ta’lim pedagogikasi» kafedrası professori,  
pedagogika fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar faolligini oshirishga xizmat qiladigan metod va ish shakllari keng yoritiladi. Boshlang‘ich yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari, turli ehtiyojga ega o‘quvchilar, jumladan zaif eshituvchilar bilan ishlashda qo‘llaniladigan moslashtirilgan metodlar, sensor–vizual yondashuvlar, akkomodatсия va modifikasiya imkoniyatlarining ahamiyati baen etiladi. Matnda ўqituvchilar uchun amaliyotda qўllash mumkin bўlgan sodda, tuşunarli va samarali йўللار takdim etilgan.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi faoligi, moslashtirilgan metodlar, akkomodatsiya, modifikatsiya, sensor–vizual yondashuv, o‘yinli faoliyat.

**Аннотация.** В статье подробно раскрываются методы и формы работы, направленные на развитие активности учащихся начальных классов в условиях инклюзивного образования. Рассматриваются психологические особенности младших школьников, необходимость адаптированных подходов при работе с детьми с особыми образовательными потребностями, включая слабослышащих. Особое внимание уделено визуальным и сенсорным методам, аккомодации и модификации. Материал представлен в простом и практико-ориентированном формате.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, начальная школа, учебная активность, адаптация, аккомодация, модификация, сенсорные методы, игровые задания.

**Abstract.** This article presents expanded instructional strategies and adapted activity formats aimed at increasing student engagement in inclusive primary education. It explains the developmental characteristics of young learners and emphasizes the need for differentiated approaches for students with special educational needs, including hard-of-hearing children. Visual and sensory techniques, accommodation and modification strategies, and play-based activities are discussed as effective components of inclusive pedagogy. The article provides practical, easy-to-apply methods for teachers.

**Keywords:** inclusive education, primary school, learner engagement, adapted teaching strategies, accommodation, modification, sensory methods, visual supports.

Alohida ta’limiy ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar - turli xil rivojlanish xususiyatlari tufayli alohida yondashuvni talab qiluvchi bolalardir. Ular o‘zlarining intellektual, emotsional, sensor yoki jismoniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur toifaga kiruvchi o‘quvchilar ko‘pincha an’anaviy ta’lim metodlari yordamida to‘liq rivojlana olmaydi, shu bois ularga differensial va moslashtirilgan yondashuv zarur. Boshlang‘ich sinfda barcha bolalarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlash inklyuziv ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, ularning individual, ta’limiy ehtiyojlari va

o‘rganish usullari e‘tiborga olinishi muhim. Aynan ushbu omillardan kelib chiqqan holda darsni moslashtirilgan shaklda tashkil etish o‘quvchi faolligining oshishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayon bosqichma-bosqich qanday amalga oshirilishini ko‘rib chiqamiz.

O‘quvchi faolligini shakllantirishning muhim omili boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘rganish jarayoniga oid psixologik xususiyatlar haqida bilimga ega bo‘lish hisoblanadi. Ularning bilim olishda asosan sezgi analizatoriga tayanadilar. O‘quvchilar tasvir orqali mazmuni tezroq tushunadilar, qisqa, sodda ko‘rsatmalarni yaxshi qabul qiladi, faol harakatda bo‘lsa, ma’lumotni oson o‘zlashtiradilar, o‘yin shaklidagi topshiriqlarga kuchliroq qiziqadilar.

Zaif eshituvchi bolalarda bu jihatlar yanada kuchli namoyon bo‘ladi. Ular mavzuni vizual tasvirlar, belgi va predmetlar yordamida osonroq o‘zlashtiradi. Shu bois o‘quv jarayonini ko‘rgazmali, o‘yinli va bosqichma-bosqichma-bosqich tashkil etish o‘quvchi faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi ish shakllaridan biri o‘quvchining yakka tartibda faoliyat olib borishini rivojlantirishdir. Individual faoliyat bolaning samarali sur‘atda ishlashi uchun imkon yaratadi. Bu ish shakli, ayniqsa, zaif eshituvchi va o‘qishda qiyinchiligi bo‘lgan bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Individual topshiriqlar o‘quvchining o‘z kuchiga ishonchini oshiradi va bilimni bosqichma-bosqich mustahkamlaydi.

Samarali individual faoliyat turlari:

- rasm va matnni moslashtirish;
- bo‘sh joylarni to‘ldirish;
- qiyin topshiriqlarni qismlarga ajratib bajarish;
- predmetlar bilan ishlash (tasniflash, juftlash);
- oddiy amaliy topshiriqlar.

Bunday faoliyatlar o‘quvchining mustaqilligini rivojlantiradi va uning darsdagi faolligini tabiiy ravishda oshiradi. Individual o‘rganishga oid yondashuvlar tushunarli bo‘lgach, endi o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan ish shakllariga o‘tamiz.

Juftlikda ishlash muloqot va hamkorlikni kuchaytiruvchi vosita sanaladi. Bu ish turi o‘quvchilar o‘rtasidagi tabiiy muloqotni rivojlantiradi, shu orqali ularning darsdagi ishtiroki ortadi. Juftlikda ishlash o‘quvchining o‘z fikrini ifodalashi, boshqasini tinglashi va birgalikda faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. Juftlik faoliyatining samarali shakllari sifatida “Rasmni top va izohla”, “Sherigingga ko‘rsatma ber”, “Gapni davom ettir”, “Ikki rasm orasidagi farqni toping”, “Birgalikda hikoya tuzing” kabilarni misol tariqasida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Zaif eshituvchi o‘quvchi uchun suhbatdoshining yuz ifodasi, imo-ishoralari va vizual yordam ko‘rsatishi mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ko‘proq ishtirokchilarni qamrab olish va jamoaviylikni talab qiladigan ish uslubi guruh ishlari va o‘yinli metodlardir. Guruh ishlari o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularda mas’uliyat hissini shakllantiradi va darsni qiziqarli qiladi. O‘yinli va jamoaviy topshiriqlar boshlang‘ich sinf bolalari uchun tabiiy o‘rganish muhitini yaratadi. Guruhli mashg‘ulotlar quyidagi shakllarda olib borilishi mumkin:

- rasm yoki matndan birgalikda kichik sahna yaratish;
- predmetlarni guruhlarga ajratish;
- jamoaviy puzzle yig‘ish;

“Topshiriqlar aylanishi” usuli (har guruh bir bosqichni bajaradi);  
rolli o‘yinlar.

Bu metodlar o‘quvchining o‘zini sinfning teng a‘zosi sifatida his qilishiga yordam berish omili ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, zaif eshituvchi o‘quvchilar guruh ichida o‘zlariga mos rolni topib, faol ishtirok eta oladi.

Inklyuziv ta’limda har bir o‘quvchining yoshiga, rivojlanish darajasiga, maxsus ta’lim ehtiyojiga moslashtirilgan individual yondashuv zarur. Uning samaradorligi o‘quv materialini bolaga moslashtirish darajasiga bog‘liq. Akkomodatsiya va modifikatsiya - moslashtirishning ikki asosiy shaklidir.

Akkomodatsiyada topshiriqning mazmuni o‘zgarmaydi, faqat uni bajarish sharoiti yengillashtiriladi:

- yirik shriftlardan foydalanish;
- rasmi ko‘rsatmalar berish;
- dars jarayonida shovqinni kamaytirish;
- o‘quvchiga qo‘shimcha vaqt ajratish;
- ko‘rsatmani bosqichma-bosqich berish.

Modifikatsiyada esa o‘quv materialining mazmuniga o‘zgartirish kiritiladi, hajmi soddalashtiriladi:

- murakkab matn qisqartiriladi;
- savollar osonlashtiriladi;
- uzun topshiriq bo‘laklarga ajratiladi;
- og‘zaki javob o‘rniga rasmi javob berish imkoniyati yaratiladi.

Bu yondashuvlar o‘quvchining darsdagi muvaffaqiyatini oshirib, uning faolligini qo‘llab-quvvatlaydi. Har ikki yondashuvda sensor-vizual metodlarga tayanish orqali ularning natijaviyligiga erishiladi.

Sensor-vizual yondashuvlarning o‘quvchi faolligini oshirishga xizmat qilishni maqsad qilib, o‘quvchilarning tabiiy o‘rganish mexanizmlariga tayanadi. Zaif eshituvchi o‘quvchilar bilimlarni eshitish qoldiqlarigagina emas, asosan ko‘rish orqali idrok etgani, barcha bolalar uchun birdek samarali ekanligi bois, vizual vosita hamda resurslarning roli katta.

Quyidagi sensor-vizual usullar eng keng tarqalgan, samarali sanaladi:

- piktogramma, belgilar va rangli signallar;
- predmetli ko‘rsatmalar;
- video va animatsiya;
- pantomima va imo-ishoralar;
- harakatli o‘yinlar;
- rasm asosida hikoya tuzish.

Bu metodlar o‘quvchini darsning markaziy ishtirokchisiga aylantiradi, uning diqqatini barqaror saqlaydi va o‘rganishni qiziqarli qiladi.

Xulosa va tavsiyalar

Inklyuziv boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi faolligini oshirish, avvalo, o‘qituvchining metod tanlash mahorati, darsni sodda, tushunarli va moslashtirilgan shaklda tashkil eta olish qobiliyatiga bog‘liq. Individual, juftlik va guruh ishlari; sensor-vizual yondashuvlar; o‘yinli metodlar; akkomodatsiya va modifikatsiya - o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi va teng imkoniyatli

ta’lim muhitini yaratadi. Bu esa inklyuziv ta’limning asosiy g’oyasi - har bir o’quvchi uchun qulay, tushunarli va mos sharoit yaratishni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Alohida ta’limiy ehtiyojlari bo’lgan, jumladan, zaif eshituvchi o’quvchilar uchun boshlang’ich ta’lim jarayonini moslashtirilgan shaklda tashkil etish ularning o’zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda darsdagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. O’quvchining psixologik, yosh va sensor xususiyatlarini hisobga olish, individual, juftlikda va guruhli faoliyat turlarini uyg’unlashtirish - inklyuziv ta’limning samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan biridir.

Individual yondashuv o’quvchining o’z kuchiga bo’lgan ishonchini orttursa, juftlik va guruhli faoliyatlar muloqot, hamkorlik va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o’quv materialini akkomodatsiya va modifikatsiya orqali moslashtirilganda, o’quvchi mavzuni o’z rivojlanish sur’atiga mos tarzda qabul qiladi va mustahkamlaydi. Sensor-vizual metodlarning qo’llanishi, ayniqsa, zaif eshituvchi o’quvchilar uchun muhim bo’lib, ular mavzuni ko’rish, tasvirlash va harakat orqali chuqurroq idrok etadilar.

Xulosa qilib aytganda, o’quv jarayonining turli bosqichlarida moslashtirilgan metodlar, vizual vositalar va interfaol shakllardan foydalanish - inklyuziv ta’limda o’quvchini markazga qo’yadigan, uning shaxsiy imkoniyatlarini ro’yobga chiqaradigan, barqaror va sifatli ta’lim muhiti yaratishga xizmat qiladigan samarali pedagogik yondashuvdir.

Zero, inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi - har bir o’quvchining o’z qobiliyatlari bilan porlashiga imkon beruvchi adolatli va insonparvar ta’lim makonini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023.
2. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonini. 2020.
3. «Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi». O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.
4. «2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF- 60-son Farmoni.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-4860-son qarori.
6. Florian, L., Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal. 28.
7. Nazarova, D. A. Inklyuziv ta’lim asoslari. - Toshkent. «Lesson press» 2022.
8. Nazarova, D. A. (2020). «Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education.» European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), 7-12.
9. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021, ISSN: 2660-5643/ Page 149.